

KORPORATIV EKOLOGIK JAVOBGARLIKNING NORMATIV-HUQUQIY ASOSLARI (MILLIY VA XALQARO)**Zarfullayeva Zulayho Baxtiyor qizi****Jahonova Malika Ibodullo qizi***Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications, Master's students***MAQOLA
MALUMOTI****Abstract****MAQOLA TARIXI:***Received: 19.07.2025**Revised: 20.07.2025**Accepted: 21.07.2025***Keywords:**

Korporativ ekologik javobgarlik, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, ekologik xavfsizlik, ISO 14001, Barqaror rivojlanish, ekologik nazorat, Parij kelishuvi, BMT SDG, ekologik siyosat.

Ushbu maqolada korporativ ekologik javobgarlikning milliy va xalqaro normativ-huquqiy asoslari chuqur tahlil qilingan. Xalqaro hujjatlar – Parij kelishuvi, BMT SDG maqsadlari, ISO 14001 kabi standartlar hamda O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunlari o'zaro solishtirma asosda ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ekologik javobgarlikning iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy ko'rinishlari hamda ularning korporativ siyosatdagi o'rni yoritilgan.

Korporativ ekologik javobgarlik konsepsiyasining shakllanishi va rivojlanishi bevosita xalqaro ekologik huquqning taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab atrof-muhit muhofazasi global siyosat darajasiga ko'tarildi. Aynan shu davrda ekologik xavflar transchegaraviy tus olgani bois, davlatlararo huquqiy mexanizmlarga ehtiyoj kuchaydi. Natijada, BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan fundamental xalqaro hujjatlar ishlab chiqildi.

1972-yilgi Stokgolm deklaratsiyasi xalqaro ekologik huquqning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bu deklaratsiyada ilk bor davlatlarning atrof-muhitni muhofaza qilishda o'zaro

mas'uliyati, "ifloslovchi to'laydi" prinsipi (polluter pays principle), hamda barqaror rivojlanishning asosiy huquqiy tamoyillari ilgari surilgan.

Shundan so'ng, muhim huquqiy majburiyatlarni belgilovchi quyidagi konvensiyalar va bitimlar qabul qilindi:

1. Parij iqlim kelishuvi (2015) – bugungi kunda eng muhim xalqaro hujjatlardan biri bo'lib, 195 ta davlat tomonidan imzolangan. Bu kelishuv global isishni 2°C darajadan past saqlash, iqlimga moslashuv choralari kuchaytirish va har 5 yilda milliy iqlim bo'yicha harakat rejalari (NDC) haqida hisobot berish majburiyatini o'z ichiga oladi⁶².

2. Rotterdam konvensiyasi (1998) – xavfli kimyoviy moddalar va pestitsidlarning xalqaro savdosini tartibga soladi. Unda "oldindan ogohlantirish asosidagi rozilik" (PIC) mexanizmi orqali har bir moddani olib kirishdan oldin mamlakat roziligi olinishi kerakligi belgilanadi⁶³.

3. Bazel konvensiyasi (1989) – xavfli chiqindilarning transchegarali harakatini nazorat qilishga qaratilgan. Ushbu konvensiyaga 188 davlat a'zo bo'lib, u global chiqindi boshqaruvi siyosatini shakllantiradi.

Qolaversa, ko'plab xalqaro ekologik tashabbuslar korxonalarga bevosita yoki bilvosita ekologik mas'uliyat yuklaydi. Jumladan:

➤ 1. BMT Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC, 1992) – korxonalarni uglerod chiqindilarini kamaytirishga undaydi.

➤ 2. Kyoto Protokoli (1997) va Parij Bitimi (2015) – iqlimga ta'sirni cheklash bo'yicha milliy va korporativ darajadagi strategiyalarni talab qiladi.

➤ 3. BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari" (SDG, 2015) – 12-, 13- va 15-maqsadlar to'g'ridan-to'g'ri korxonalarni ekologik javobgarlikka jalb etadi.

Xalqaro konvensiyalardan tashqari, ayrim mintaqalar o'z hududida qo'llaniladigan ekologik standartlar va huquqiy bazani mustahkamlab bordi. Yevropa Ittifoqining REACH reglamenti (2006) kimyoviy moddalarni ro'yxatga olish, baholash, ruxsat berish va cheklashni o'z ichiga oladi. Bu reglament 30 000 dan ortiq modda uchun xavfsizlik va ekologik me'yorlarni belgilaydi, korxonalarni ekologik xavf haqida oldindan axborot berishga majbur qiladi.

⁶² UNFCCC Paris Agreement. FCCC/CP/ 2015, P 3-5

⁶³ FAO (1998). Rotterdam Convention on the Prior Informed Consent Procedure .P 7-9

Shimoliy Amerikada esa NAFTA ekologik bitimi (1994) asosida tuzilgan NAAEC shartnomasi transchegaraviy ekologik muammolarni hal qilish, korxonalar faoliyatining ekologik oqibatlarini baholash va davlatlararo monitoringni tashkil etishga xizmat qiladi.

Xalqaro moliyaviy institutlar ham ekologik me'yorlarning amaliy joriy etilishida muhim rol o'ynamoqda. Masalan:

- Jahon banki o'zining Environmental and Social Framework hujjatida ekologik baholash, ijtimoiy xavfsizlik va atrof-muhit monitoringini har bir moliyalashtirilayotgan loyiha uchun majburiy talab sifatida belgilagan. Potensial zararli ta'sirga ega loyihalarga kredit ajratilmaydi.

- Yevropa investitsiya banki (EIB) esa Climate Bank Roadmap 2021–2025 hujjatida 2025-yilgacha iqlimga oid loyihalarga 1 trillion yevrogacha mablag' ajratishni va'da qilgan. Bu mablag'lar qayta tiklanadigan energiya, chiqindilarni qayta ishlash va uglerod izini kamaytiruvchi loyihalarga yo'naltiriladi.

O'zbekiston Respublikasi ham bir qator xalqaro ekologik shartnomalarning ishtirokchisidir. Xususan, mamlakat Parij kelishuvini 2021-yilda ratifikatsiya qilgan va iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy harakat rejalarini ishlab chiqmoqda.

Xalqaro standartlar va tavsiyalar:

Korxonalar ko'pincha ekologik siyosatini xalqaro standartlar asosida shakllantiradi. Jumladan:

- ISO 14001 (Environmental Management Systems) – ekologik menejment tizimini yaratish va yuritish bo'yicha global standart.

- GRI (Global Reporting Initiative) – korporativ barqarorlik hisobotlarida ekologik ko'rsatkichlarni ochiqlashni talab qiladi.

- OECD Guidelines for Multinational Enterprises – transmilliy kompaniyalarning ekologik va ijtimoiy javobgarligini belgilab beradi.

- CDP (Carbon Disclosure Project) – uglerod emissiyasi va iqlim risklarini ochiqlash mexanizmini ta'minlaydi.

- IFC Performance Standards (Jahon banki guruhi) – korxonalar uchun ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash, baholash va boshqarish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Atrof-muhit qonunlari va tartibga solishlari aksariyat mamlakatlarda atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqarish uchun muhim vositadir. Barqaror rivojlanishning ikkita maqsad yo'lida; keng iqtisodiy vositalar yordamida atrof-muhitni himoya qilish va uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlash uchun asos sifatida xizmat qiladi. O'n uch yildan ortiq vaqt ichida, aksariyat mamlakatlar atrof-muhitni baholashga oid siyosatlar, ko'rsatmalar,

tartiblar va qonunlarni qabul qilgan. Bu faqat rivojlangan mamlakatlarda emas, balki barcha qit'alardagi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham shunday bo'lgan. Bu haqiqatning asosiy omillari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) 1969 yilda Amerika Qo'shma Shtatlarida Milliy Atrof-muhit Siyosati Aktining (NEPA) qabul qilinishi, bu atrof-muhitni baholashni davlat siyosatiga kiritdi;

b) 1987 yilda "Bizning umumiy kelajagimiz" nomi bilan tanilgan Brundtland hisobotining nashr etilishi, atrof-muhitni baholashni barcha hukumat sohalarida qo'llanilishini talab qildi;

c) NEPA va Brundtland hisobotining tobora ko'proq mamlakatlar, korxonalar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi;

d) sanoatlashgan va rivojlanayotgan mamlakatlarda atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadigan turli faoliyatlar uchun rasmiy EIA prinsiplarini va amaliyotlarini qabul qilish.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunlari xalqaro ekologik majburiyatlarning milliy qonunchilikdagi aksidir. Biroq, ayrim xalqaro tamoyillarning to'liq integratsiyasi hali ham muammoli bo'lib qolmoqda: jumladan, chiqindilarni qayta ishlash infratuzilmasi, ekologik axborotga ochiqlik va fuqarolik jamiyatining monitoringdagi ishtiroki cheklangan.

Xalqaro ekologik huquqiy baza korxonalar uchun nafaqat ixtiyoriy tavsiyalar, balki majburiyatlar majmuasini ham belgilab beradi. Ayniqsa, ISO 26000, ESG, va aylana iqtisodiyotga asoslangan yondashuvlar xalqaro huquqiy normalar bilan uyg'unlashib borayotgan bir paytda, har bir davlat va korxona o'z faoliyatini bu me'zonlarga moslashtirishi zarur. O'zbekiston uchun bu xalqaro tajriba ekologik boshqaruvni takomillashtirish va barqaror rivojlanishga erishishda asosiy tayanch bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ekologik masalalarni huquqiy jihatdan tartibga solish masalasi mustaqillik yillarida strategik yo'nalishlardan biri sifatida qaralgan. Xalqaro majburiyatlar, global ekologik xavotirlar va ichki barqaror rivojlanish ehtiyojlari asosida milliy normativ-huquqiy baza shakllantirilib, bosqichma-bosqich takomillashtirilib bormoqda.

Ekologik javobgarlikni ta'minlashda eng oliy huquqiy hujjat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ekologik huquq va majburiyatlar mustahkamlab qo'yilgan. 2023-yilgi tahrirdagi 49-moddada quyidagi muhim norma belgilangan:

“Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega”⁶⁴.

Shuningdek, ushbu moddada davlatning atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash borasidagi burchi ochiq ifodalangan. Bu holat ekologik masalalarni konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarilganligini bildiradi.

Mustaqillikdan so‘ng qabul qilingan eng muhim qonunlardan biri bu: “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Ushbu qonun 11 bob va 53 modda asosida ekologik monitoring, ekspertiza, ijtimoiy nazorat, ma‘muriy javobgarlik va iqtisodiy mexanizmlarni tartibga soladi. Qonunda ekologik javobgarlik konsepsiyasi davlat, korxonalar va fuqarolarning o‘zaro majburiyatlari doirasida aniq belgilangan. “Ekologik nazorati to‘g‘risida”gi Qonun esa ekologik huquqbuzarliklar yuzasidan davlat nazorati, monitoring vositalari, jarima sanksiyalari va inspeksiya faoliyatini tartibga soladi⁶⁵.

Ekologik barqarorlik davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida bir qator muhim farmon va qarorlarda o‘z aksini topgan:

- PQ-5112-sonli qarori asosida “2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident qarori tasdiqlagan bo‘lib, bunda ekologik javobgarlikni tashkilotlarning strategik rejalarga integratsiyalash talab etiladi⁶⁶.

- PF-158-sonli Farmon – “O‘zbekiston–2030” strategiyasining bir bandi sifatida iqlimga moslashuv va chiqindilarni kamaytirish choralari milliy rivojlanish yo‘nalishiga aylantirdi⁶⁷. O‘zbekiston “yashil iqtisodiyot” ga o‘tish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish, uning salbiy oqibatlarini yumshatish, atmosfera havosini muhofaza qilish, yashil maydonlarni kengaytirishga ahamiyat qaratishga intilmoqda. Barqaror rivojlanishga qaratilgan “O‘zbekiston 2030” strategiyasida ekologiya va atrof-muhit, hududlarni muhofaza qilish va ko‘kalamzorlashtirish masalalariga ham alohida e‘tibor qaratilmoqda⁶⁸.

Ekologik boshqaruvda normativ-texnik hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega:

- O‘zDSt 2456:2021 – ishlab chiqarish chiqindilarining toifalanishi, zararsizlantirilishi va monitoringi bo‘yicha standart⁶⁹.

⁶⁴ <https://lex.uz/docs/-6445145>

⁶⁵ <https://lex.uz/acts/-2304953>

⁶⁶ <https://lex.uz/docs/-4539502>

⁶⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

⁶⁸ <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/07/climate/>

⁶⁹ <https://www.standart.uz/news/view?id=1018>

• O‘zDSt 987:2020 – atmosfera havosi sifatini baholash va nazorat qilish bo‘yicha me‘yoriy hujjat⁷⁰.

Bu standartlar xalqaro ISO 14001 tizimi bilan muvofiqlashgan bo‘lib, korxonalar uchun ekologik auditi asosida qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Hududiy darajada ham ekologik qonunchilik va tashabbuslar shakllanmoqda. Misol uchun:

• Toshkent shahrida 2023-yilda “Yashil shahar” dasturi asosida ko‘kalamzorlashtirish va ekologik transportni rivojlantirish bo‘yicha mahalliy qarorlar qabul qilingan⁷¹.

• Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv resurslarini muhofaza qilishga oid maxsus qonunlar orqali Amudaryo havzasida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda⁷².

Ekologik javobgarlik faqat normativ hujjatlar emas, balki sud pretsedenti orqali ham mustahkamlanmoqda: O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 12-sonli plenum qarori ekologik huquqbuzarliklar bo‘yicha jazo choralarini, zarar hisob-kitobini va da‘vo tartiblarini belgilaydi⁷³.

• 2022-yil holatiga ko‘ra 124 ta ekologik sud ishi ko‘rilgan bo‘lib, bu ekologik qonunchilik amalda faol ishlayotganini ko‘rsatadi. Qolgan yillar kesimida sodir etilgan huquqbuzarliklar tegishli tashkilotlar ma‘lumotlar ba‘zasiga joylanmaganliklari sababli hozirgi vaqtga qadar aniq raqamlarda ekologik qonun buzilishlarini raqamlarda ifoda etolmadik.

O‘zbekiston ekologik sohaga oid xalqaro majburiyatlarni milliy qonunchilikka tatbiq etish bo‘yicha faol harakat qilmoqda:

• Parij kelishuvining milliy integratsiyasi doirasida iqlimga ta‘sir ko‘rsatadigan loyihalar bo‘yicha hisobot berish, energiya samaradorligini oshirish va yashil investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari ishlab chiqilgan.

• Bazel konvensiyasi chiqindilarni transchegaraviy harakati ustidan nazorat va ruxsat mexanizmlarini milliy qonunlarda aks ettirishga sabab bo‘ldi.

⁷⁰ <https://www.standart.uz/news/view?id=797>

⁷¹ https://www.norma.uz/oz/qonunchilikda_yangi/toshkent_yashil_shaharga_aylanadi
<https://lex.uz/docs/-5611003>

⁷² <https://lex.uz/ru/docs/-5144128?ONDATE=01.04.2022>
<https://yuz.uz/uz/news/qoraqalpogiston-respublikasida-suv-resurslaridan-samarali-foydalanish-va-erlaming-meliorativ-holatini-yaxshilash-boyicha-kechiktirib-bolmaydigan-chora-tadbirlar-to'grisida>

⁷³ <https://lex.uz/docs/-4396483>
<https://gov.uz/oz/eco/news/view/28570>

Amaliy holat va statistik ma'lumotlar

• 2023-2024-yillarda ekologik qonunbuzarliklar bo'yicha jami 124 milliard so'm miqdorida jarimalar undirilgan⁷⁴. Afsuski, bu raqamlar insonlarning atrof-muhit oldidagi majburiyatlarini qoniqarli bajarishiga haligacha natija bergan emas.

• O'zbekistonda sifat tizimlari bo'yicha xalqaro ISO sertifikatiga ega bo'lgan korxonalar soni 2020-yildagi 32 tadan 2024-yilda 87 taga yetdi⁷⁵.

Ko'rsatgich	2020	2024
Ekologik jarimalar (mlrd som')	45	124
ISO 14001sertifikatlar soni	32	87
Ekologik da'volar	56	124 (2022)

Bugungi globallashuv jarayonida tabiat, jamiyat va inson o'rtasidagi mutanosiblikning buzilishi, demografik vaziyatning o'zgarishi global ekologik muammolarni keltirib chiqarayotgani yurtimiz siyosatida ham, OAVlari orqali ham bot-bot takrorlanib kelinyapti. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov bu masalaga alohida e'tibor qaratib: "Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsivani hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir", - degan edi.

O'zbekistonda ekologik javobgarlik sohasida amalga oshirilayotgan ekologik siyosat natijasida ekologik inqirozning zararini kamaytirish, yangi inqiroziy jarayonlarning oldini olish yuzasidan qattiq va keskin chora-tadbirlar qo'llash imkoniyatiga ega bo'lgan, zamon talabi darajasidagi atrof-muhitni muhofaza qilish tizimi yaratildi. Ushbu tizim jamiyat va tabiat o'rtasidagi muvozanatni saqlab qolish, fuqarolarning qulay atrof-muhitda yashashini va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, shuningdek tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiat boyliklarining butligi va muhofazaga olinganligini kafolatlaydigan tashkiliy - huquqiy mexanizm hisoblanadi. Mazkur mexanizmning amalga oshirilish jarayoni ko'p jihatdan ekologik qonunchilik tizimi va holatidan kelib chiqadi. Milliy qonunchilikda KEJni tartibga soluvchi asosiy hujjatlar quyidagilardan iborat:

1. "Atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun (1992)

⁷⁴ <https://daryo.uz/2024/04/02/ozbekistonliklarning-2023-yildagi-ekologik-huquqbuzarligi-uchun-32-milliard-somlik-jarima-tayinlangani-malum-boldi>

<https://gov.uz/oz/eco/news/view/47922>, <https://uznature.uz/yz/site/news?id=3377>

⁷⁵ <https://www.standart.uz/page/view?id=91>

— Bu qonun O‘zbekiston ekologik siyosatining asosiy huquqiy tayanchidir. Unda yuridik va jismoniy shaxslarning tabiatni asrash, ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha majburiyatlari belgilangan⁷⁶.

2. “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonun (2000)

— Har qanday yangi loyihaning ekologik ta’sirini baholash va tasdiqlash tartiblarini belgilaydi. Korxonalar ekologik ekspertiza xulosasiga ega bo‘lmasdan faoliyat boshlay olmaydi.

3. “Yashil iqtisodiyot to‘g‘risida”gi Prezident farmoni (2023 -yil, PQ-125-son)

— Ekologik toza texnologiyalar, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi manbalarni rivojlantirish hamda korporativ darajada ekologik mas’uliyatni shakllantirishga oid yangi bosqichni belgilaydi⁷⁷.

4. “Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi ekologik nazorat tartibi to‘g‘risida”gi nizom (Davlat ekologiya qo‘mitasi, 2021)

— Korxonalarning faoliyati ustidan nazorat qilish, ekologik audit va monitoring tartiblarini belgilaydi.

5. Ekologik to‘lovlar va kompensatsiyalar tizimi

Korxonalar atrof-muhitga yetkazilgan zarar uchun to‘lov to‘laydi, bu esa ularni ekologik yondashuvga undaydi (masalan, chiqindi chiqarish, havoni ifloslantirish va boshqalar uchun to‘lov stavkalari belgilanadi).

Ekologik javobgarlik mazmun va mohiyatiga ko‘ra uch ko‘rinishda namoyon bo‘ladi:

- ~ ekologik-ijtimoiy javobgarlik;
- ~ ekologik-iqtisodiy javobgarlik;
- ~ ekologik-huquqiy javobgarlik.

Ekologik-ijtimoiy javobgarlik kishilarning jamoatchilik oldidagi javobgarligidir.

Ekologik-iqtisodiy javobgarlik esa iqtisodiy-huquqiy javobgarlikning bir turi bo‘lib, milliy yoki xalqaro huquq normalarida belgilangan qoida va me‘yorlarni buzganlik uchun iqtisodiy javobgarlik choralari o‘z ichiga oladi. Iqtisodiy javobgarlik sifatida tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni ifloslantirish uchun to‘lovlar qo‘llaniladi.

Ekologik-huquqiy javobgarlikka milliy va xalqaro huquq normalarida belgilangan ekologik munosabat qatnashchilari uchun majburiy kuchga ega bo‘lgan qoida va me‘yorlarni buzganlar uchun yuridik tisdagi jazo choralari qo‘llanilishi kiradi.

⁷⁶ O‘zbekiston Respublikasi “Atrof-muhitni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, 1992-yil.

⁷⁷ Prezident qarori PQ-125-son, 2023-yil – “Yashil iqtisodiyot”ni joriy etish konsepsiyasi.

O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini belgilab beradi. Qonunning maqsadi inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar uyg'unlikda rivojlanishini, ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini ta'minlashdan, fuqarolarning qulay atrof muhitga ega bo'lish huquqini kafolatlashdan iboratdir.

Tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-texnik talablarini buzishda, shu jumladan:

- korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa obyektlarni rejalashtirish, qurish, tiklash va ta'mirlash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish chog'ida, ekologiya nuqtayi nazaridan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo'yilgan ekologiya sig'imini, ekologiya normalari, qoidalarini buzishda;
- tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanishda, davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarmaganlikda;
- tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun belgilangan to'lovni, shuningdek atrof-muhitni ifloslantirganlik va unga zararli ta'sir ko'rsatishning boshqa turlari uchun kompensatsiya to'lovlari to'lashdan bosh tortganlikda;
- tabiatni muhofaza qilish obyektlarini qurish rejalarini, tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa tadbirlarni bajarmaslikda;
- atrof tabiiy muhitni tiklash, unga bo'ladigan zararli ta'sir oqibatlarini bartaraf
- etish va tabiiy resurslarni takror ishlab chiqarish choralarini ko'rmaganlikda va boshqa hollarda O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa yo'sindagi javobgarlikka tortiladilar.

Iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvi yoki Biologik xilmaxillik to'g'risidagi konvensiya kabi xalqaro shartnoma va konventsiyalar atrof-muhit muammolarini hal qilish uchun global asoslarni o'rnatadi va davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantiradi.

Milliy va xalqaro huquqiy asoslar korxonalarning ekologik strategiyalarini shakllantirishda quyidagi jihatlar bo'yicha hal qiluvchi rol o'ynaydi:

- Huquqiy majburiyatlar: kompaniyalar qonunga muvofiq ekologik reja, chiqindi nazorati va hisobot yuritishga majbur.
- Standartlar va sertifikatlar: ISO 14001, ESG, GRI hisobotlari kabi tizimlar xalqaro bozorda ishtirok etish uchun zarur.

• Investitsion jozibadorlik: ekologik xavflarni boshqara oladigan, huquqiy jihatdan to'liq mas'uliyatli kompaniyalar investorlar uchun ishonchliroq hisoblanadi.

• Ijtimoiy qonuniylik: jamoatchilik va ekologik faollar uchun huquqiy asoslar ishonchli boshqaruv vositasidir.

Xalqaro ekologik normativ-huquqiy asoslar insoniyatning umumiy atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatini belgilash, davlatlar, korxonalar va jamoatchilik o'rtasida ekologik yondashuvni uyg'unlashtirish va global iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashni muvofiqlashtirish maqsadida joriy etilgan.

Ushbu huquqiy asoslar turli xalqaro tashkilotlar (BMT, OECD, ISO, IFC, CDP, GRI) tashabbusi bilan yaratilgan bo'lib, ular ko'plab mamlakatlarda qonuniy kuchga ega bo'lmasada, kompaniyalar va hukumatlar uchun yo'l-yo'riq (soft law) va mezonlar rolini o'ynaydi.

Xalqaro asoslar quyidagi sabablarga ko'ra joriy etilgan:

1. Global ekologik muammolar – umumiy javobgarlik

Iqlim o'zgarishi, biosferaning degradatsiyasi, chiqindilar to'planishi, havo va suvning ifloslanishi kabi muammolar davlat chegaralariga bo'ysunmaydi. Shu sababli, bunday xavflarni bartaraf etish uchun xalqaro darajada kelishilgan huquqiy va institutsional mexanizmlar zarur bo'lgan.

2. Davlatlar va kompaniyalar faoliyatini uyg'unlashtirish

Transmilliy korxonalar va investorlar faoliyatini yagona ekologik me'yorlar asosida yuritish, noto'g'ri foydalanish (greenwashing)ning oldini olish. Masalan, ISO 14001, GRI, ESG indikatorlari orqali korxonalar faoliyati global mezonlarga muvofiq baholanadi.

3. Qonunchilik bo'yicha bir xillikni ta'minlash

Turli davlatlarda ekologik qonunchilik darajasi turlicha. Xalqaro normalar orqali minimal standartlar joriy qilinadi (masalan, uglerod emissiyasi cheklovlari, chiqindi boshqaruvi). Bu investorlar, hamkorlar va iste'molchilar uchun ishonch kafolati bo'lib xizmat qiladi.

4. Barqaror rivojlanish tamoyillarini kuchaytirish

SDG (Barqaror rivojlanish maqsadlari) asosida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy muvozanatni saqlashga qaratilgan siyosatlar ishlab chiqiladi.

Nega biz xalqaro normativ-huquqiy asoslardan foydalanishimiz kerak?

1. Xalqaro hamkorlik va investitsiyalar uchun shart

Ko‘plab xorijiy investorlar (IFC, EBRD, GIZ, UNDP) ekologik xavfsizlikka oid xalqaro talablar bajarilgan korxonalar bilan ishlaydi. Masalan, ISO 14001 sertifikatiga ega bo‘lmagan kompaniyalar xalqaro loyihalarga jalb qilinmaydi.

2. Barqarorlik va imijni mustahkamlash

Korxonalar o‘zining ekologik mas’uliyatini GRI yoki ESG hisobotlari orqali namoyon qilishi raqobatda ustunlik beradi. Bu xalqaro bozorda ishtirok etishni osonlashtiradi, brend ishonchliligini oshiradi.

3. Davlat siyosatlari va qonunchilikka tayyorlik

Ko‘plab xalqaro huquqiy asoslar milliy qonunchilikka integratsiyalashmoqda (masalan, “Yashil iqtisodiyot” strategiyasi orqali). Oldindan tayyor bo‘lgan korxonalar huquqiy xavflarni kamaytiradi va oson moslashadi.

4. Atrof-muhit xavfini boshqarishning zamonaviy yondashuvi

– Xalqaro standartlar (ISO 14001, CDP, TCFD) orqali ekologik risklar identifikatsiya qilinadi, baholanadi va nazorat ostida saqlanadi.

Ushbu milliy va xalqaro normativ-huquqiy asoslarning o‘zaro taqqoslanishi orqali korxonalar qanday mezonlar asosida ekologik strategiyalarni shakllantirayotgani yanada ravshanlashadi. Quyidagi sxemada xalqaro va O‘zbekiston qonunchiligi o‘rtasidagi muhim farq va o‘xshashliklar keltirilgan.

Solishtirma huquqiy sxema: Xalqaro va O‘zbekiston ekologik javobgarlik normativlari taqqoslamasi:

Asosiy yo‘nalish	Xalqaro yondashuv (model, hujjat)	O‘zbekiston qonunchiligi (model, hujjat)
Ekologik siyosat	BMT SDGs (12, 13-maqсадlar) – ekologik barqarorlik siyosati	“2019-2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Prezident qarori
Huquqiy majburiyat	UNFCCC, Parij Bitimi – davlatlar va korxonalar chiqindi kamaytirishga majbur	“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun
Ekologik ekspertiza	OECD – baholash tavsiyalari, risk tahlili	“Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi Qonun

Standartlar va sertifikat	ISO 14001, GRI, CDP, IFC Performance Standards ISO 14001	O'zbekistonda ixtiyoriy joriy etilmoqda; korxonalar asosida integratsiya qilmoqda
Monitoring va hisobot	GRI/ESG indikatorlari asosida barqarorlik hisobotlari	Ekologik hisobotlar: Davlat ekologik qo'mitasiga yillik hisobotlar topshiriladi
Nazorat va javobgarlik	ESG tavakkalchilik monitoringi, investorlar tomonidan baholash	Ekologik nazorat nizomi, davlat ekologik inspeksiyasi
Ijtimoiy mas'uliyat bilan bog'liqlik	Elkington (TBL), Carroll piramidasi orqali ekologik ijtimoiylik	Ijtimoiy-ekologik mas'uliyat bevosita qonunchilikda emas, balki konsepsiyalarda aks etgan

Xulosa qilib aytganda, ekologik javobgarlikni shakllantirish va amalga oshirishda huquqiy, institutsional hamda texnik-me'yoriy asoslar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xalqaro darajada ekologik javobgarlik tamoyillari BMT rezolyutsiyalari, konvensiyalar, ESG standartlari va ISO tizimlari orqali belgilab berilgan bo'lib, ular tashkilotlar va davlatlar zimmasiga majburiyatlar yuklaydi.

O'zbekiston Respublikasi esa bu tamoyillarni milliy konstitutsiyaviy normalar, maxsus qonunlar, prezident qarorlari, hukumat qarorlari, texnik standartlar va sud amaliyoti orqali o'zlashtirib bormoqda. 2023–2024 yillarda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, iqlimga moslashuv, chiqindilarni boshqarish va sanoatning "yashil transformatsiyasi" bo'yicha qator normativ hujjatlar qabul qilindi.

Shuningdek, ISO 14001, GRI, EMAS kabi xalqaro standartlarning milliy faoliyatga integratsiyalashuvi ekologik boshqaruv tizimlarining samaradorligini oshirmoqda. Bunda sertifikatlash, audit, monitoring kabi mexanizmlar korxonalar uchun nafaqat majburiyat, balki raqobat ustunligiga aylanishi mumkin.

Ammo mavjud tizimni yanada kuchaytirish uchun ekologik xabardorlikni oshirish, kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash, texnologik infratuzilmani modernizatsiyalash va xalqaro hamkorlikni kengaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг «Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги Қонуни. – Тошкент, 1992.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони, ПФ-60. – Тошкент, 2022.
3. Ўзбекистон Республикаси Экологик кодекси. – Тошкент, 2021.
4. Paris Agreement under the United Nations Framework Convention on Climate Change. – UN, 2015.
5. United Nations. “Transforming our world: the 2030 Agenda for Sustainable Development.” – New York: United Nations, 2015.
6. International Organization for Standardization (ISO). “ISO 14001: Environmental management systems – Requirements with guidance for use.” – ISO, Geneva, latest edition.
7. Joseph, G. E., & Taplin, R. (2012). “The Role of Corporate Environmental Responsibility in Corporate Sustainability.” *Corporate Social Responsibility and Environmental Management*, 19(5), 252–265.
8. Schaltegger, S., & Burritt, R. (2018). *Contemporary Environmental Accounting: Issues, Concepts and Practice*. – Routledge.
9. OECD. “Environmental Policy Tools and Evaluation.” – OECD Publishing, 2021.
10. Халқаро меҳнат ташкилоти (ILO). “Корпоратив ижтимоий масъулиятнинг халқаро стандартлари.” – Женева, 2021.
11. Mamatkulov, A., & Tursunov, B. (2023). “Legal Mechanisms of Ensuring Environmental Safety in Uzbekistan.” *Central Asian Law Review*, 5(1), 76–89.
12. <https://daryo.uz/2024/04/02/ozbekistonliklarning-2023-yildagi-ekologik-huquqbuzarligi-uchun-32-milliard-somlik-jarima-tayinlangani-malum-boldi>
13. <https://gov.uz/oz/eco/news/view/47922>, <https://uznature.uz/yz/site/news?id=3377>
14. <https://www.standart.uz/page/view?id=91>
15. <https://lex.uz/ru/docs/-5144128?ONDATE=01.04.2022>
16. <https://yuz.uz/uz/news/qoraqalpogiston-respublikasida-suv-resurslaridan-samarali-foydalanish-va-erlarning-meliorativ-holatini-yaxshilash-boyicha-kechiktirib-bolmaydigan-chora-tadbirlar-togrisida>
17. <https://www.gazeta.uz/oz/2024/05/07/climate/>